



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TILLAR FAKULTETI
O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI**

**FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

2023-yil, 15-may

BUXORO – 2023

ILMIY ANJUMANNING DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|-----------------------|--|
| 1. M.I. Daminov | - Buxoro davlat Pedagogika instituti direktori, rais; |
| 2. Sh.N. Murodov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. A.A. Ikramov | - Ilmiy - tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. D.A. Tosheva | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 5. N.I. G'aybullayeva | - Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 6. R.A. Saidova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi mudiri, a'zo; |
| 7. G.B.Rustamova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, a'zo; |
| 8. S.X.Mahmudova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, a'zo; |
| 9. M.Sh. Boltayeva | - O'zbek va rus tillari kafedrasi katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 10. Z.A. Salixova | O'zbek va rus tillari kafedrasi katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 11. D.H. G'afurova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. N.N.Mirjonov | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. M.U.Usmonova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. N.O. Avazova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. H.S. Ubaydova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|-----------------------|--|
| 1. Sh.N. Murodov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. A.A. Ikramov | - Ilmiy - tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, rais muovini; |
| 3. Sh.A. Raximov | - Ishlar boshqarmasi boshlig'i, a'zo; |
| 4. D.A. Tosheva | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 5. N.I. G'aybullayeva | - Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 6. R.A. Saidova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi mudiri, a'zo; |
| 7. G.B. Rustamova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, a'zo; |
| 8. S.X. Mahmudova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, a'zo; |
| 9. M.Sh. Yunusova | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. N.N. Mirjonov | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. T.L. Chxetiane | - O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. L.M. Mustafoyeva | O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-sontan bayoni 20-bandni birinchi xatboshisida belgilangan 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshirig'i, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydag'i 2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida 118-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2023-yil 5-may kuni Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasida "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

R.A.Saidova

- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

G'.N.Murodov

-filologiya fanlari doktori, professor

N.I.G'aybullayeva-filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

abgor bo'lgan qalbni xurmo daraxti misoli tez o'sishini ya'ni yayrashini istaydi. Bu xohishini chiroyli obrazlar misolida dalillagan. Lirik qahramonning bunday qarashlari har qanday she'riyat ixlosmandlari uchun yangilikdir. Salim Ashur nozik so'zlar yordamida ulkan ma'nolarni joylagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy she'riyatimiz ko'p bosqichli xususiyati bilan o'z muxlislariga ega bo'ldi. Ijodkorlar safi kengayib, mavzu doirasi ham ancha takomillashdi. Yosh avlodni tarbiyalash borasidagi say-harakatlar o'z samarasini berdi.

Adabiyotlar:

1.S.Mirzayev,S.Shermuhammedov.Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent.O'zbekiston.1993.

2.Hasan Said.Jangchining qo'shiqlari.Toshkent, O'zdavnashr,1942.

3.Salim Ashur.Muhabbat kitobi.G'.G'ulom nashriyoti, Toshkent 2018.

MUQIMIY "SAYOHATNOMA" LARINING NASHRLARARO QIYOSIY TAHLILI

H.O. Safarova

BuxDU, f.f.n. dotsent.

X.I. Baxtiyorova

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi II bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada Muqimiyl asarlari nashrlaridagi "Sayohatnomma" janrida yozilgan asarining farqli va o'xshash tomonlari hamda ularning davor talabidan kelib chiqib, tushurib qoldirilgan va tahrir qilingan bandlari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Aminxo'ja Muqimiyl, sayohatnomma, murabba', tahrir, tahlil, tanqid, qozi, mufti, noshir, nashr.

O'zbek she'riyatida "Sayohatnomma" janrining shakllanishi Aminxo'ja Muqimiyl nomi bilan bog'liq. Muqimiyl Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohatga chiqib, topgan ozgina puliga Isfara, Konibodom, Qo'qonning bahavo joylariga sayohat qilgan. Sayohatlaridan olgan taassurotlarini esa nazmda ifoda etgan. Bu misralar bugungi kungacha "Sayohatnomma" nomi bilan mashhurdir. Ma'lumki, uzoq yillar davomida Muqimiyl ijodini o'rganishga biryoqlama yondashildi. Ya'ni uning turli janrlardagi diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she'rlari umuman o'rjanilmadi, yoki o'rjanilsada, nashr etilmadi. Nashr etilganlarini ham tahrir etilgan holda chop etildi. Maqolamizda Muqimiyl asarlari nashrlarining sho'rolar davridagi 3ta va mustaqillik yillaridagi 2ta nashri asosida fikr bildiramiz.

Ular - 1953-yilda G'afur G'ulom tomonidan Muqimiyning "Tanlangan asarlar"i, G'ulom Karimov noshirligida 1960-yilda Muqimiyy "Asarlar" to'plamining 2 tomligi, 1974-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida G'ulom Karimov tomonidan Muqimiyy "Asarlar"i qayta chop etilgan nashri, Abdullatif Turdaliyevning xizmatlari asosida oldingi nashrlardagi xatolar tuzatilgan va kamchiliklari to'ldirilgan holda 2010-yilda Muqimiyning "Bog' aro" nomi bilan qilingan she'rlar to'plami nashri va 2022-yilda Nurboy Jabborov noshirligida Muqimiyning keyingi yillarda topilgan asarlari kiritilgan "O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur" nomli nashlaridir.

Yuqorida keltirilgan nashrlarning barchasida "Sayohatnoma" asari kiritilgan. "Sayohatnoma"larining nashrlararo qiyosiy tahlili qilganimizda juda ko'p o'rnlarda tushurib qoldirilgan so'zlar va tahrir etilgan bandlarga ko'zimiz tushdi.

"Qo'qondan Farg'onaga" (ba'zi nashrlarda Qo'qondan Konibodomga) deb ataluvchi qismining 10-bandи sho'rolar davrida chop etilgan nashrlarning barchasida va 2010-yilda Abdullatif Turdaliyev tomonidan nashr etilgan "Bog' aro" she'rlar to'plamida quyidagicha keladi:

Ko'p odamidin Beshariq
Bog'larda ekmishlar tariq
Yetim haqi-go'shti baliq,
Qilmishlari nayrang ekan.²¹

Xuddi shu band 2022-yilda Nurboy Jabborov tomonidan nashr etilgan "O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur" deb nomlangan she'rlar to'plamida esa farqli ravishda berilgan:

Ko'p mardumidin Beshariq
Ahlini "quttout tariq"
Yetim haqi – go'shti baliq,
Ishlari revu rang ekan.

Misollarning 2-misrasidagi tafovutli qo'llangan so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, birinchi bandda Beshariq odamlarining bog'larda tariq ekishi haqida aytilsa, ikkinchi bandda Beshariq odamlarini "quttout tariq" deya ta'riflaydi. "Quttout tariq" so'ziga Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4-jildida "yo'lto'sarlar", "yo'l bosib o'tuvchilar" deya izoh berilgan. Qaysi nashr to'g'ri ekanligini bilish uchun Filologiya fanlari doktori

²¹ G'afur G'ulom. Muqimiyy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: O'z SSR davlat nashriyoti, 1953. 58-bet

Q.Pardayev tomonidan aniqlangan 6352 raqamli bayozdagi bandni keltirib o'tamiz:

Ko'p mardumidin Beshariq
Ahlini "quttout tariq"
Yetim haqi – go'shti baliq,
Ishlari revu rang ekan.

Demak, 2022-yildagi nashr asliyatdagi bilan bir xil ekan.

"Qo'qondan Shohimardonga" deb ataluvchi qismining 5-bandida ham tahrirga uchragan jumlalar mavjud. Bu band ham sho'rolar davrida chop etilgan nashrlarning barchasida va mustaqillik yillarida nashr etilgan "Bog' aro" she'rlar to'plamida bir xilda quyidagicha keltirilgan:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir Qo'shtegirmonlik kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan.

2022-yilda Nurboy Jabborov tomonidan nashr etilgan "O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur" deb nomlangan she'rlar to'plamida esa o'zgarishlar mavjud:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.

Bandlarning 2-misrasidagi "bedonishi" va "bir donishi" so'zlari bir-biriga zid so'zlardir. Biri dono, oqil insonni bildirsa, biri nodonni anglatadi. 4-misradagi "bekor" va "badkor" so'zlari ham xuddi shunday. 2022-yildagi band misralaridan ma'lum bo'lishicha, Muqimiy savol bermoqda. Bu joyning mingboshisi kim? Shunda bir oqil odam bir "Qo'shtegirmonlik" kishi ekanligini aytmoqda va Xo'ja Iso mingboshilik lavozimidan bo'shangani ta'kidlanmoqda. Qaysi nashr to'g'ri ekanligini bilish uchun Filologiya fanlari doktori Q. Pardayev tomonidan aniqlangan 6352 raqamli bayozda keltirilgan o'sha to'rtlikni keltirib o'tamiz:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.

Demak, 2022-yilgi nashr asliyatdagi bilan bir xil. Oldingi nashrlarda "bir donishi" so'zining "bedonishi"ga aylantirilishi natijasida muallifning badiiy niyati butunlay teskari talqin etilgan. 4-misradagi "bekor" so'zining "badkor" tarzida tahrir qilinishi misralar mazmunini o'zgartirib yuborgan.

Hozirda hech qanday lavozimda ishlamaydigan Xo'ja Iso ismli shaxs yomon ishlar qiluvchi mingboshi deya talqin qilingan.

8-bandda ham tahrirga uchragan misralar mavjud.

Unda bo'lus G'ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilg'on ishi ozor ekan.²²

Mazkur bandning 2022-yildagi nashrda va 6352 raqamli bayozda mana bunday ekani kuzatiladi:

Anda bo'lus hoji dedi,
Ham mufti ham qozi dedi,
Yurti hama rozi dedi,
Bechora beozor ekan.

Ushbu bandlar Do'rmancha mavzesining bo'lusi haqida. 1-bandda, G'ozi bo'lus qishloq rahbarlaridan bo'lib, barcha mansablarni egallab olgan, uning zolimligidan xalq ozor chekib, norozi bo'ladi. Keyingi nashrdan keltirgan misolimizda Do'rmancha mavzesining bo'lusi hoji ham muftilik, ham qozilik qiladi. Yurtdagi insonlarning hammasi bu bechora beozor isondan rozi degan fikrlar mujassam. E'tibor bering, G'ozi obrazi asliy matnda umuman uchramaydi. Davr talabi nuqtai nazaridan bandning barcha misralari tahrir qilingan. Buning natijasida esa muallifning diniy lavozim egalari ya'ni mufti, hoji va qozilar haqidagi qarashlariga xato baho berilgan. Bunday tafovutlar anchagina.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tushurib qoldirilgan bandlarning ba'zilari hech bir sababsiz qisqarishga uchragan bo'lsa, ba'zilari sho'rolar davri nashrlarining davr talabiga ko'ra qishqarishga uchragan.

Adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Muqimiyy. Tarlangan asarlar. -Toshkent: O'z SSR davlat nashriyoti, 1953.
2. G'ulom Karimov. Muqimiyy. 2 tomlik asarlar to'plami.- Toshkent: O'z SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1960.
3. G'ulom Karimov. Muqimiyy. Asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
4. Abdullatif Turdialiyev. Muqimiyy. Bog' aro. She'rlar.-Toshkent: Akademnashr, 2010
5. Nurboy Jabborov. Muqimiyy. O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur. - Toshkent: Adabiyot, 2022
6. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. [www.navoiy-uni .uz](http://www.navoiy-uni.uz).

²² Abdullatif Turdialiyev. Muqimiyy. Bog' aro. She'rlar.-Toshkent: Akademnashr, 2010. 278-bet

ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА И ИХ РЕШЕНИЯ	Тургунбоев Асадбек Баҳтиярович Гафурова Дилбар Ҳакимовна	75
MAQOLLAR TARKIBIDAGI LEKSIK ANTONIMLARNING TURKUMLANISH JIHATDAN TURLARI	Ubaydova Hulkarbegim.....	79
MULOQOT TIZIMIDA NUTQIY SHAROIT VA VAZIYATNING O'RNI	Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi	82
ФРАЗЕОЛОГИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА	Хамраева Дирабо Рамазановна	84
SHIFOKOR VA BEMOR O'RTASIDAGI NUTQ VA MULOQOTNING TURI	Yunusova Maftuna Shokirovna	87
СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ ОЙКОНИМОВ	Чоракулова Диинора Зокиржоновна	91

II. SHO'BA. ADABIYOTSHUNOSLIKDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

OSMANLI EDEBİYATI ÇALIŞMALARINA DİJİTAL YAKLAŞIMLAR	Selim Yavuz ...	95
ADABIYOTSHUNOSLIKDA TURKUMLILIK TARAQQIYOTI	Sh.N.Axmedova Mustafoyeva Malika	108
YASSAVIY TOSHBOSMASI NASHRLARIDA TATAR TILI FONETIKASINING TA'SIRI	Amonova Zilola Qodirovna Baxtiyorova Gulnigor Murodillayevna	112
AHMAD A'ZAM'IN "RÜYA YA DA GÜLİSTAN'A YOLCULUK" ROMANINDA SEMBOLLER	Abduraxmonova Mohira	115
ADABIYOT ABADIY...	Abdumannonova Shaxinur Valijon qizi	120
ALISHER NAVOIYNING "XAZOYIN UL- MAONIY" KULLIYOTIDAGI DEVONLARDA ISO ALAYHISSALOM SHAXSIYATIGA MUROJAAT	Baxronova Maftuna Istamovna.....	123
TOHIR MALIK ASARLARIDA "VAQT" MASALASI	Hasanova Solihabonu Soli qizi Ilmiy rahbar: Rustamova Gavhar Bahron qizi	127
ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA NAFS KO'RINISHLARI	Jo'rayeva Muhabbat Amonovna.....	128
MUHAMMAD YUSUFNING "O'KSIMAGIN O, YURAK" SHE'RIDA FITOMORF OBRAZLAR IFODASI	Mubinova Aziza Mansurovna Ilmiy rahbar: Rustamova Gavhar Bahron qizi	133
ISTE'DOD VA IJOD MASALASI	Nafisa Karimova.....	136
ПОРТРЕТ КАК ИНСТРУМЕНТАРИЙ ВОСПРОИЗВЕДЕНИЯ ПСИХОЛОГИЗМА В «ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ» ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ КИЗИ	Муртазаева Феруза Рашитовна Шермухамедова Насиба Алмазовна	139
ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA O'ZBEK AYOLI OBRAZINING ESTETIK IFODASI	Naimova O'g'iloy Alisherovna.....	143
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PREREQUISITES OF LITERARY ANALYSIS	Nuridinova Manzura Jurayevna	145
ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ БОЛАЛАРГА БАФИШЛАНГАН ШЕЪРЛАРИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЛИК	Дирабо Қувватова Гулҳаё Шокирова	148
BOLALAR ADABIYOTIDA ANVAR OBIDJON IJODINING BADIY TALQINI VA O'ZIGA XOS ESTETIK XUSUSIYATLARI	Qobilova Aziza Ahrorovna.....	152